

## **YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO'G'RISIDA HUQUQIY XULOSA**

Loyihaning turi: Loyiha-smeta va qidiruv ishlari bajarish uchun shartnomasi

1. Loyihaning nomi: Yakkabog' tuman hokimligi obodonlashtirish boshqarmasi va "MARJONA UNIVERSAL FAYZ" XK o'rtasida Yakkabog' tuman Obod qishloq dasturiga tushgan Ishkent MFYda tungi yoritish chiroqlari o'rnatish ishlari uchun loyiha-smeta xujjalalarini tayyorlash va tayyorlangan loyiha-smeta xujjalalariga ekspertiza xulosasi olish ishlarini bajarish bo'yicha, 1 600 000 (Bir million olti yuz ming) so'mlik shartnoma loyihasi.

2. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqida ma'lumot:

Yakkabog' tuman hokimligi Obodonlashtirish boshqarmasi tomonidan markazga 27.06.2022 yilda kiritilgan.

**Loyiha amaldagi qonu hujjalalariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.**

**Yakkabog' tuman yuridik xizmat  
ko'rsatish markazi bosh yuriskonsul'ti**

27.06. 2022 yil



F.Mo'minov.

# LOYIHA-SMETA VA QIDIRUV ISHLARI BAJARISH UCHUN SHARTNOMASI

2022 y. «01» 7 2022-691-4-68-OB-son \_\_\_\_\_ sh.

Keyingi o'rnlarda "Buyurtmachi" deb yuritiladigan **Yakkabog' tuman hokimligi Obodonlashtirish boshqarmasi** nomidan **Nizom** asosida ish ko'rvuchi **S.Suyunov** bir tomondan va ikkinchi tomondan keyingi o'rnlarda Bajaruvchi deb ataluvchi "**MARJONA UNIVERSAL FAYZ" XK nomidan** ish yurituvchi **M.Saitov** urtasida, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi belgilangan tartibda quyidagi shartnomani tuzdilar:

## 1. Shartnoma predmeti

1.1. Buyurtmachi, Yakkabog' tumanida Obod qishloq dasturiga tushgan Ishkent MFYda tungi yoritish chiroqlari o'rnatish ishlari uchun loyiha-smeta xujjatlarini tayyorlash va tayyorlangan loyiha-smeta xujjatlariga ekspertiza xulosasi olish ishlarini topshiradi, Bajaruvchi esa o'z zimmasiga oladi.

## 2. Shartnoma baxosi va to'lovlar koidalari

2.1. Ishlarni amalga oshirishning umumiy baxosi **1 600 000** (Bir million olti yuz ming) so'mni tashkil qiladi va mazkur shartnomaning 2-ilovasidagi loyixa xujjatlarini bajarish va moliyalashtirish jadvaliga muvofiq bajariladi.

2.2. Buyurtmachi shartnomani G'aznachiligidan ro'yxatdan o'tkazilgandan so'ng shartnomaning belgilangan baxosining 30% miqdorida avans to'lovini amalga oshiradi.

2.3. Ishlar qiymatini kupaytirishga yengib bulmaydigan kuch (fars-major) xolatlari sabab bulganda yoki ishlar-xajmi Buyurtmachi tomonidan uzgartirilganda shartnoma baxosi uzgartirilishi mumkin.

2.4. Xar bir bosqichda bajarilgan ishlar uchun joriy moliyalashtirish Buyurtmachi tomonidan tasdiqlangan dalolatnomalar asosida ajratilgan avans mablag'i mikdori belgilangan foiz doirasida ushlab qolinib amalga oshiriladi.

2.5. Buyurtmachi ishlarni topshirish-kabul kilish oraliq dalolatnomalari imzolangandan so'ng 5 bank kuni mobaynida Bajaruvchiga xaq to'lashni o'z zimmasiga oladi.

2.6. Ishlar qiymati uzil-kesil xisoblanadi va keyinchalik qayta ko'rib chiqilishi mumkin emas, quyidagi xollar bundan mustasno:

ishlar qiymatini kupaytirishga yengib bo'lmaydigan kuch (fors-major) xolatlari sabab bo'lganda; ishlar xajmi Buyurtmachi tomonidan o'zgartirilganda.

## 3. Tomonlar majburiyatları

3.1 Bajaruvchi ishlarni dastlabki ma'lumotlar va kelishilgan grafik asosida vaqtida bajarishni, Buyurtmachi bilan bajariladigan ishlarning (bosqichlarning) natijalarini kelishishni o'z zimmasiga oladi.

3.2 Buyurtmachi ishlarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan birlamchi ma'lumotlar va materiallarni Bajaruvchiga taqdim qiladi.

3.3 Buyurtmachi shartnomada ko'zda tutilgan shartlar va tartiblar asosida to'lovni amalga oshirish, ishlarning shartnomada ko'rsatilgan xajm va shartlarga muvofik bajarilishida Bajaruvchiga yordam ko'rsatish, bajarilgan ishlardan shartnomada ko'zda tutilgan maqsadlarda soydalanish, Bajaruvchining roziligesiz shartnoma bo'yicha bajarilgan ishlarni uchinchi shaxsga bermaslik va undagi ma'lumotlarni tarqatmaslikni o'z zimmasiga oladi.

3.4 Buyurtmachi tomonidan avans to'lovleri o'z vaqtida o'tkazilmagan xolda yoki ishni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan birlamchi ma'lumotlar va materiallarni Bajaruvchining talabiga asosan taqdim etmaganida ishlarni boshlash va tugallash muddati xam avans to'lovi va ma'lumotlar berilishi kechiktirilgan vaqtga qadar uzaytiriladi.

**3.5** Ushbu shartnomma buyicha Bajaruvchi o‘z majburiyatlarini sifatsiz bajarsa, kelishilgan qo‘srimcha muddatda, talab qilingan sifat darajasida o‘z xisobidan qaytadan bajaradi.

#### **4 Ishlarni topshirish va qabul qilish tartibi**

**4.1** Ishlar tugagandan so‘ng Bajaruvchi Buyurtmachiga ishlarni topshirish va qabul qilish dalolatnomasi bilan topshiradi.

**4.2** Buyurtmachi ishlarni topshirish va qabul qilish dalolatnomasi olgandan so‘ng 10 kun mobaynida ishlarni qabul qilish va Bajaruvchiga imzolangan topshirish va qabul kilish dalolatnomasini yoki ishlarni kabul qilmaslikning asoslangan rad javobini yuborishni o‘z zimmasiga oladi.

Agar Buyurtmachi ishlarni kabul kilgan kundan boshlab 10 kun muddat ichida Bajaruvchiga kamchiliklar ko‘rsatilgan ishlarni qabul qilmaslik rad javobini yubormasa, ishlarni qabul qilingan xisoblanadi va bunday xolatda Buyurtmachi ishlarni topshirish-qabul qilish dalolatnomasini imzolab, bir nusxasini Bajaruvchiga qaytarishi shart.

**4.3** Buyurtmachi ishlarni qabul qilmasligining asosli rad javobini bergen xolda zarur bo‘lgan qo‘srimcha ishlarning ro‘yxati va ularning bajarilish muddatlarini ko‘rsatgan xolda, ikki tomonlama dalolatnoma tuziladi.

**4.4** Agar ishlarni bajarilish jarayonida uni davom ettirish maqsadga muvofik emasligi aniqlansa, tomonlar 5 kun muddat ichida uni to‘xtatish to‘g‘risida bir-birini xabardor qilishi va 15 kun ichida ishlarni davom ettirish maksadga muvofiq yoki muvofiq emasligi to‘g‘risidagi masalani ko‘rib chiqishi shart. Ishlarning to‘xtatilishi tomonlar uchun O‘zbekiston Respublikasi Fukarolik kodeksida ko‘zda tutilgan oqibatlar va javobgarlikka olib keladi.

**4.5** Tomonlardan biri mazkur shartnomada ko‘zda tutilgan ishlarni to‘xtatish tug‘risida yozma xabar bergen vaqt o‘zaro xisob-kitob qilish vaqtini xisoblanadi.

**4.6** Lozim topilgan xollarda tomonlar xolis ekspertlarga Loyiha bo‘yicha xulosa uchun murojaat qilishi yoki qabul komissiyasi tashkil qilishi mumkin.

#### **5.Konfidensial ma’lumotlarii ximoyalash**

**5.1** Ishlar bajarilishi davrida Bajaruvchi o‘zi konfidensial xisoblanadigan ma’lumotlar ishlab chiqqan yoki ularni Buyurtmachidan olgan xollarda ularni ximoyalash, oshkor bo‘lishini oldini olish maqsadida tegishli tadbir va choralar ko‘radi.

#### **6. Yengib bo‘lmaydigan kuch (fors-major) xolatlari**

**6.1** Agar ushbu shartnomma bo‘yicha majburiyatlar kisman yoki to‘lik bajarilmasligi tabiat xodisalari va boshqa yengib bo‘lmaydigan kuch xolatlari natijasida kelib chiqsa va agar bu xolatlar mazkur shartnomaning bajarilishiga bevosita ta’sir etsa, tomonlar bunday qisman yoki to‘liq bajarmaslik uchuy javobgarlikdan ozod etiladilar.

Mazkur shartnomma bo‘yicha majburiyatlarini bajarish muddati yengib bo‘lmaydigan kuch xolatlari amal qilgan, shuningdek ushbu xolatlari yuzaga keltirgan vaqtga mutanosib ravishda uzaytiriladi.

**6.2** Agar yengib bulmaydigan kuch xolatlari yoki ularning okibatlari bir oydan kup vaktga chuzilsa, u xolda Buyurtmachi va Bajaruvchi ishlarni davom ettirish yoki ularni to‘xtatish uchun qanday choralar ko‘rilishini muxokama kiladilar.

**6.3** Agar tomonlar ikki oy ichida kelisha olmasalar, u xolda tomonlarning xar biri shartnomma bekor qilinishini talab qilishga xaqlidir.

#### **7. Qo‘srimcha shartlar**

**7.1** Bajaruvchi loyixani muddatidan oldin bajargan xolda, Buyurtmachi uni mazkur shartnomaning 4-moddasiga asosan qabul qiladi va to‘la to‘lojni amalga oshiradi.

**7.2** Xar bir obekt (Avtomobil yul) uchun Nuksonlar kaydnomasini Buyurtmachi tomonidan bajaruvchi ishtirokida aloxida ishlab chiqiladi xamda Bajaruvchiga topshiriladi.

**7.3.** Uzaro muloqat yo‘li bilan xal qilinmagan muammolar konun xujjalarda o‘rnatalgan tartibda xal qilinadi.

**7.4** Shartnomaga tomonlar roziligi asosida, yozma ravishda uzgartirishlar va ko‘shimchalar kiritilishi mumkin.

**7.5** Bajaruvchi mazkur shartnomada kursatilgan ishlarni bajarish vaktida uz imkoniyatlaridan kelib chikib, Buyurtmachini xabardor kilmagan xolda uchunchi shaxslarni, jumladan yuridik va jismoniy shaxslarni mustakil ravishda jalb kilish xukukiga ega.

**7.6** Mazkur shartnomaning shartlari shartnoma predmeti buyicha taraflarning shartnoma tuzishidan oldin vujudga kelgan munosobatlariga va Bajaruvchining obe’kt buyicha bajargan ishlariga nisbatan kullaniladi.

**7.7** Mazkur shartnoma amal kilish davomida yuzaga keladigan tortishuvlar, kelishmovchiliklar, nizolar tomonlar tarafidan uzaro muzokara yuli bilan xal etiladi.

Kelishuvga kelinmagan takdirda tortishuvlar, kelishmovchiliklar, nizolar iqtisodiy sudda e’tiroz tartibiga rioya kilgan xolda, kurib chikiladi. E’tirozlar yozma ravishda takdim kili nisi kerak va ularni kurib chikish muddati e’tiroz bildirilgan tomon olganidan keyin 1 (bir) oy muddatni tashkil etadi. Mazkur shartnoma buyicha nizo kelib chikkan xollarda konunda belgilangan tartibda xal kilinadi.

**7.8** Bajarilgan ishlar yoki ko’rsatilgan xizmatlar haqini o’z vaqtida to’lamaganlik uchun «Buyurtmachi» «Bajaruvchi»ga o’tkazib yuborilgan har bir kun uchun kechiktirilgan to’lov summasining 0,4 foizi miqdorida, ammo kechiktirilgan to’lov summasining 50 foizidan ortiq bo’lmagan miqdorida penya to’laydi.

**7.9.** «Bajaruvchi» «Buyurtmachi»ga kelishilgan ish xizmatlarni o’z vaqtida bajarmasa kechiktirilgan har bir kun uchun majburiyat bajarilmagan qismining 0,5 foizi miqdorida penya to’laydi, biroq bunda penyaning umumiyligi summasi bajarilmagan ish xizmatning 50 foizidan oshib ketmasligi lozim. Penyani to’lash shartnoma majburiyatlarini buzgan tarafni suvni yetkazib berish muddatlarini kechiktirib yuborish, to’liq yetkazib bermaslik oqibatida yetkazilgan zararni qoplashdan ozod etmaydi.

**7.10** Agar Buyurtmachining mazkur shartnoma tuzilgan kun xolatiga avvalgi shartnomalar buyicha Bajaruvchi oldida karzdorligi bulsa, Bajaruvchi ushbu shartnomaga asosan tulangan pul mablaglaridan eng avvalo karzdorlikni ushlab kolishga va karzdorlik yopilgandan keyin kolgan mablaglarni ushbu shartnoma buyicha xisobga olishga xakli.

**7.11** Mazkur shartnoma bilan nazarda tutilmagan taraflarning javobgarligi Uzbekiston Respublikasining amaldagi konun xujjalari, xsusan Uzbekiston Respublikasi Fukarolik kodeksiga, «Xujalik yurituvchi sub’ektlar faoliyatining shartnomaviy-xukukiy bazasi tugrisidagi Uzbekiston Respublikasining konuniga muvofik belgilanadi.

**7.12.** Buyurtmachining suroviga asosan zarur xollarda Joriy ta’mirlash ishlari smeta xujjalari uzgartirishlar kiritilishi mumkin.

**7.13.** Shartnomaga quyridagilar ilova qilinadi:

- \* Shartnoma baxosini kelishuv bayonnomasi (1- ilova)
- \* Smeta xisobi (2-ilova)
- \* Bajarish va moliyalashtirish jadvali (3- ilova)

**7.14.** To’langan penya yoki jarimalar tomonlarni ushbu shartnoma bo‘yicha o’z majburiyatlarini bajarishdan ozod qilmaydi.

**7.15.** Ushbu shartnoma uzbek tilida ikki nusxada tuzildi va bir xil yuridik kuchga ega.

7.16. Shartnoma amal kilish muddati 31.12.2022 yilgacha

**8.Tomonlarning manzili va hisob raqamlari**

«Buyurtmachi»	«Ish bajaruvchi»
YAKKABOG' TUMAN HOKIMLIGI OBODONLASHTIRISH BOSHQARMASI	"MARJONA UNIVERSAL FAYZ" XK
Manzili: Yakkabog' shahri A.Temur ko'chasi 47-uy	MANZIL: <i>Qarshi shahri</i>
Tel. Faks +99875 58-24-582	Tel: + 99891638-15-17
Shv\x 301821860102507065200110004	<i>Ipotika bank ATB Qashqadaryo filiali</i> X\#R 2020 8000 3045 3188 7001
Budjetdan mablag oluvchi STIR 200 711 074	INN: 206 423 144 OKED: _____
OKONX: 90211 MFO:00014 Bank:Markaziy BBXKKM	OKONX:71280 MFO:00190
«Yakkabog' tuman hokimligi Obodonlashtirish boshqarmasi boshlig'i» : - S.Suyunov	"MARJONA UNIVERSAL FAYZ" XK boshlig'i: <i>M.Saitov</i> M.Saitov

Uzbekiston Respublikasi Moliya vazirligi Gaznachiligi  
Gazna x/v 23402000300100001010 MFO 00014  
Bankning nomi: Toshkent Markaziy bonk XKKM  
Gaznachilik bulimi STIRi 201122919

